

ЎТМИШГА НАЗАР

МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

LOOK TO THE PAST

SPECIAL ISSUE



Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Мургазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

"Ўтмишга назар" илмий журнали таҳририй маслаҳат кенгаши
редакционный совет научного журнала "Взгляд в прошлое"
Editorial board of the scientific journal Looking into the past

Кебадзе Мадонна

*Доктор исторических наук, Телавский
государственный университет, Грузия*

Бурдиашвили Майя

*Доктор исторических наук, Телавский
государственный университет, Грузия*

Кожакеева Ляззат Темировна

*тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети,
Қозоғистон Республикаси*

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич

*тарих фанлари доктори, профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети*

Бобожонова Дилором Бобожонова

*тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети*

Зияева Доно Ҳамидовна

*тарих фанлари доктори, профессор,
ЎЗР ФА Тарих институти*

Аширов Адҳам Азимбаевич

*тарих фанлари доктори, профессор,
ЎЗР ФА Тарих институти*

Агзамова Гулчеҳра Азизовна

*тарих фанлари доктори, профессор,
ЎЗР ФА Тарих институти*

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна

*тарих фанлари доктори, Тошкент
кимё - технология институти*

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна

*тарих фанлари номзоди, Ўзбекистон
давлат жаҳон тиллари университети доценти*

Эргашева Юлдуз Алимовна

*Тарих фанлари доктори, профессор
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти*

Теймураз Ахалмосулишвили

*профессор, Телавский государственный университет,
Грузия*

Халикова Раҳбар Эргашевна

*тарих фанлари доктори, профессор, Тошкент
давлат техника университети*

Ишанходжаева Замира Райимовна

*тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон
Миллий Университети*

Кобзева Ольга Петровна

*тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон
Миллий университети*

Одилов Аброр Анварович

*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон
Миллий университети*

Ерметов Аваз Абдуллаевич

*тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон
Миллий университети*

Саипова Камола Давляталиевна

*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон
Миллий университети*

Джоробекова Айнура Эшимбековна

*тарих фанлари номзоди, профессор, Ташқи ишлар
вазирлиги қошидаги Дипломатия академияси,
Қозоғистон Республикаси*

Толипов Файзулла Саидович

*Тошкент давлат техника университети доценти,
тарих фанлари номзоди*

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

- 67.Уразова Р.**
МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОНДА ЗАРДУШТИЙЛИК ИЛОҲИЁТ
ТИЗИМИ ГЕНЕЗИСИ ЎРГАНИЛИШИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР.....511
- 68.Улашова С.**
АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МАНБАЛАРИДА
ҚАВЧИНЛАР.....526
- 69.Aminova A.M., Umarov J.O.**
BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI
SHAKLLANTIRISHNING YOSHGA BOG'LIQ XUSUSIYATLARI.....533
- 70.Усманова З., Тишабаева Л.**
ҚЎҚОН ЖАДИД МАТБУОТИ ТАРИХИНИНГ
АЙРИМ САҲИФАЛАРИ.....537
- 71.Қобулов Э., Ражабова С.**
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА СУРҲОН
ВОҲАСИ МЕҲНАТКАШЛАРИНИНГ БУЮК ҲИССАСИ.....541
- 72.Ходжаева Л.Ш.**
ФАРФОНА ВОДИЙСИ АЁЛЛАРИНИНГ АНЪАНАВИЙ БОШ
КИЙИМЛАРИДА ЁШ ДАВРИ ТИМСОЛИНИНГ АКС ЭТИШИ.....548
- 73.Ходжамбердиев Х.Э.**
СОБИҚ ИТТИФОҚ ЖАМИЯТИДАГИ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ
ЗИДДИЯТЛАРНИНГ НАЗАРИЙ ТАЛҚИНИ.....554
- 74.Ergo'ziyev A.A., Isoqov S.M.**
BUXORO AMIRLIGI SAVDOSI HORIJY MANBALARDA562
- 75.Қурбонов Э.Э.**
ЎЗБЕКНИНГ ТУРКМАН УРУФИ (Зомин туркманлари мисолида).....567
- 76.Юлдашева М.М.**
БУНЁДКОР ВА ВАЙРОНКОР ҒОЯЛАР: МОҲИЯТИ ВА ШАКЛЛАРИ.....572
- 77.Хосиятов Х.О.**
МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ТЕРМИЗ АРХЕОЛОГИЯ МУЗЕЙИ.....577
- 78.Хакназаров Х.Д.**
КУНДАЛИК ҲАРБИЙ ҲАЁТ ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ
ОБЪЕКТИ СИФАТИДА: НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАР.....583
- 79.Хатамова З.Н.**
ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА СОЛИҚЛАР ҲИСОБИГА ТЎЛДИРИЛГАН
ХАЗИНАНИНГ САРФ ЭТИЛИШИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР.....590

80.Холмўминов Ҳ.Э. ЎЗБЕКИСТОНИНГ ЖАНУБИЙ ВОҲАЛАРИДА АҲОЛИНИНГ ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРИ (XIX АСР ОХИРИ -XX АСР БОШЛАРИ).....	596
81.Худойқулов Т.Д., Халилов Ж.С. ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ЕР ЭГАЛИГИ, ҲУНАРМАНДЧИЛИК ВА САВДО.....	604
82.Ўтанов Х.Ш. XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИ АҲОЛИСИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИ ВА ИЖТИМОЙ ҲАЁТИ ТАРИХИДАН.....	615
83.Эгамбердиева Н.А., Шапсанова Н.Б. ҚАДИМГИ БАҚТРИЯ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДАГИ БАЁНИ ВА ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛ МАСАЛАЛАРИ.....	625
84.Юлдошева Б.М. XX АСРНИНГ 80-ЙИЛЛАРИДА АТРОФ-МУҲИТ МАСАЛАСИГА ЁНДАШУВЛАР ТАРИХИДАН (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА).....	636
85.Ғаффоров Я.Х. ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИ ХОРИЖИЙ ТАРИХЧИЛАР ТАҲЛИЛИДА.....	643
86.Шайдуллаева Г.Ш. БАҚТРИЯ ЛАЗУРИТИНИНГ ҚАДИМИЙ МЕСОПОТАМИЯ ШАҲАРЛАРИГА ТАРҚАЛИШИ ҲАҚИДА ЁЗМА ВА АРХЕОЛОГИК МАНБАЛАР.....	651
87.Yakubova Sh.A. O'ZBEKISTONDA FARMATSEVTIKA RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	659

ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST


Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich,
Namangan davlat universiteti

Tarix kafedrasini mudiri,
tarix fanlari nomzodi

Isoqov Sobirjon Murodjon o'g'li,
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti
isoqovsobirjon@mail.ru

BUXORO AMIRLIGI SAVDOSI HORIJYI MANBALARDA

For citation: Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich, Isoqov Sobirjon Murodjon ugli. TRADE OF EMIRATE OF BUKHARA IN FOREIGN BOOKS. Look to the past. 2020, SI, pp. 562-566

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-SI-74>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XVII-XIX-asrlarda Buxoro amirligining savdo va iqtisodiy munosabatlari xorijiy mualliflar asarlari tahlil qilingan holda yoritilgan. Shu bilan birqatorda mazkur davr mobaynida Buxoroga tashrif buyurgan elchilar, savdogarlar hamda harbiylarning qo'l yozmalari tahlil qilinib, Buxoroning Rossiya imperiyasi bilan savdosi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada Buxorodagi tatar savdogarlari faoliyati haqida ham ayrim jihatlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: savdo yo'llari, temir buyumlar, qurollar, xalqaro savdo, temir buyumlar, qurollar, savdo sayyohlari, Markaziy Osiyodagi savdo-sotiq, savdo markazi, Buxoro xonligi, Jan Srtays, Qozon, Fors, Efrimov.

Эркузиев Анваржон Ашурович,
кандидат исторических наук

Наманганский государственный университет

Исаков Собиржон Муроджон угли,
Наманганский государственный университет
isoqovsobirjon@mail.ru

ТОРГОВЛЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В ИНОСТРАННЫХ ИСТОЧНИКАХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются работы зарубежных авторов освещается торгово-экономические отношения Бухарского эмирата в XVII-XIX веков. Наряду с этим, были проанализированы рукописи послов, торговцев и военных, посетивших Бухару в этот период, и сведения о торговле Бухары с Российской империей. Также, в статье приводятся некоторые подробности о деятельности татарских торговцев в Бухаре.

Ключевые слова: торговые пути, железные изделия, оружия, международная торговля, железный изделия, оружие, торговый туристы, торговля в Центральную Азию, торговый центр, Бухарского ханства, Ян Сртэйс, Казан, Персии, Филлип Ефримов.

Erqoziyev Anvarjon Ashurovich,
Namangan State University
head of the department of history,
candidate of historical sciences
Isakov Sobirjon Murodjon ogli,
Namangan State University
Socio-economic faculty
isoqovsobirjon@mail.ru

TRADE OF EMIRATE OF BUKHARA IN FOREIGN BOOKS

ABSTRACT

In this article, the commercial and economic relationship of Bukhara emirate in XVII-XIX centuries were elaborated with the analysis of works by foreign writers. Furthermore, the manuscript of traders, ambassadors and soldiers' visited in aforementioned period and informed about trade between Bukhara and Russia. Moreover, in the article some figures about the activity of tartar traders were given.

Index Terms: trade routes, iron products, weapons, international trade, iron products, weapons, trading tourists, trade in Central Asia, a shopping center, the Bukhara Khanate, Jan Srtays, Kazan, Persia, Phillip Efrimov.

Dolzarbligi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan davlatlar, xususan, xonliklar davri tarixshunosligi o'zining rang barangligi bilan bir biridan keskin farq qiladi. Jumladan, Xiva xonligi tarixnavisligida yaratilgan tarixiy asarlar boshqa xonliklarga nisbatan o'zining aniq ma'lumotlarni aks ettirishi hamda hukmdorlarga xolisona baho berishi, xushomadgo'ylik kabi illatlarning yo'qligi bilan alohida ajralib turadi. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida bunday jihatlar kamdan kam ko'zga tashlangani sababli horijiy mualliflar asarlaridan foydalanish, fikrimizcha, ijobiy natija beradi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik tizimlilik xolislik tamoyillari shuningdek, muammoga tsivlizatsion yondashuv hamda qiyosiy tahlil usullari asosida yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

O'rta asrlar davomida Buxoro xonligining ma'muriy hamda savdo-iqtisodiy markazi hisoblangan Buxoro shahri hamisha savdogarlar va elchilarning diqqat e'tiborida bo'lgan. Chunki har tomonlama savdo chorrahasida joylashgan shahar savdogarlar e'tiborini o'ziga jalb etsa, ikkinchi tomondan xonlikka elchilar hukmdorlari nomidan muhim masalalar yuzasidan tashrif buyurganlar. Uchinchi muhim jihat esa mazkur hududga ega chiqish maqsadida xorijiy davlatlarning qiziqishlari hisoblanadi. Xususan, O'rta asrlar so'ngida O'rta Osiyo hududiga Rossiya hamda Britaniya imperiyasining qiziqishi tobora ortdi. Buning o'ziga hos bir qancha sabablari mavjud edi. Mazkur hududlarni o'rganish uchun elchilar, savdogarlar, hatto darveshlar ko'rinishidagi josuslar juda ko'p marotaba jo'natilgan. Ularga misol tariqasida Florio Beneveni, Aleksandr Byorns, Arminiy Vamberi kabilarni keltirish mumkin. Ular tashriflari jarayonida mazkur hududning aholisi, etnografiyasi, ichki va tashqi savdosi, madaniyati, turmush tarsi hamda xalq ta'limi haqida qimmatli ma'lumotlarni o'zlarining esdalik va qo'lyozmalarida qayd etgan.

Avvalo, savdo- iqtisodiy aloqalar orqali Yevropa va Rossiya hududlarida O'rta Osiyo xonliklari haqida ma'lumotlar to'planib borgan. Bu borada ruslar boshqalardan ko'proq natijaga erishgan. Orenburg hamda Astraxan shaharlari O'rta Osiyo xonliklari bilan bo'lgan savdoda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu shaharlar orqali O'rta Osiyo bozorlariga eltuvchi muhim savdo yo'llari o'tgan bo'lib, xonliklarning qimmat baho mollari butun Rossiya va Yevropa bozorlariga aynan shu hududlar vositasida tarqalgan. Astraxanda bo'lgan sayyohlar A. Oleariy (1635-1639), Yan Streys (1630-1694) va F. Avril (1685-1687) mazkur shaharni Osiyo mamlakatlari bilan bog'laydigan muhim savdo yo'llari va yillik aylanmasi, osiyolik savdogarlar yashaydigan karvonsaroylar haqida ma'lumot berganlar [1, B.50].

XVII asr davomida tatar savdogarlari Buxoro bilan faol savdo aloqalarini olib borganlar. Rus savdo hujjatlari shuni ko'rsatadiki, tatarsavdogarlari 1650-yilda Buxoroga borganlar hamda Buxoro va Oyratlarning sara mollaridan olib, ortlariga - Rossiyaga qaytganlar [2, C.110 -111]. Tatarlar, asosan, Buxoro va Xiva xonligi hududlariga zaruriy mollar: temir buyumlar, issiq kiyim-kechaklar, jun gazlamalar bilan birgalikda yashirin tarzda qurol-yarog' hamda miltiq o'qlarini tayyorlash uchun qalayni noqonuniy va yashirin yo'llar bilan olib kelganlar va sotganlar.

1722-yilda Buxoroga tashrif buyurgan rus elchisi Florio Beneveni shunday ma'lumotlarni qayd etadi: Astraxan va Saratovdan Buxoroga kelgan karvon mollari ichida qalay hamda qurollar ortilganligi aniqlandi, karvon noqonuniy (kontrabanda) deb topildi. Buxoro hukumati mazkur mollarni musodara qildi, Beneveni ham bu mahsulotlar Astraxan va Qozon tatarlariniki ekanligini aniqladi [3, C.67, 139-140, 149]. Bundan ayon bo'lmoqdaki, tatarlar Buxoro xonligini qurol-aslahalar hamda qurolsozlik uchun zarur bo'lgan qo'rg'oshin, qalay kabi mahsulotlar bilan ta'minlab turganlar. Shuning uchun ham tatar savdogarlariga Buxoroda erkin savdo qilishlari uchun xonlik tomonidan qulay shart-sharoit yaratib berilgan, hatto ularning yashashi uchun xonlik hududidan maxsus joy ham ajratib berilgan.

Mazkur ikki hudud, ya'ni Rossiya hamda O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdoda vositachilik ro'lini bajargan tatarlar buxorolik savdogarlarga o'zlariga Buxoroda yaratilgani kabi sharoit yaratib berganlar, buning natijasida Orenburgda Buxoro savdogarlari soni muntazam ravishda ortib boradi. Bu mulohazani Fillip Yefrimov (1750-1811) ham tasdiqlaydi. F.Yefrimov so'zlariga ko'ra: "Mazkur hududdagi tatarlar Orenburgdan chiqib ketishgan va buxorolik savdogarlar esa ushbu hududida ko'pchilikni tashkil qiladi va ular savdo-sotiq bilan shug'ullanadi,"- deb yozadi [4, C.72, 96].

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, savdo aloqalari har ikki tomonlama teng munosabatda olib borilgan. Buxoroda tatar savdogarlarining erkin savdo qilishi va erkin faoliyat yuritishi ta'minlangan bo'lsa, buxoroliklar uchun Orenburgda yaratilgan sharoitlar ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Shuningdek, 1795-yilda Buxoroda bo'lgan rossiyalik Burnashev va Pospelov bu yerda ko'plab tatarlarni ko'rishgan va ular Buxoroda Toshkent shahrini Rossiya bilan savdodagi asosiy markazlar sifatida qayd etganlar [5]. Bu ma'lumotlarni 1820-yilga Buxoroda bo'lgan britaniyalik sayyoh - Aleksandr Byorns ham tasdiqlaydi. Uning ma'lumotlariga qaraganda bu davrda Buxoroda minglab tatar oilasi istiqomat qilgan [6, P.227]. 1822-yilda rus ofitseri Georges de Meyendorf bergan ma'lumotlarga qaraganda bu hududda 3000 nafar tatarlar mavjud bo'lgan [7, P.81]. Orenburgda bu davrda (1825-yil) buxorolik savdogarlar xonadoni 100 taga yetgan edi.

Keyinchalik Herman Vamberi ham o'zining "Markaziy Osiyoga sayohatlar" ("Travels in Central Asia") asarida Buxoro amiri tatar savdogarlariga homiylik qilganligi va ularga yashash uchun muqim joy berganligini ta'kidlaydi. Bunga qo'shimcha tarzda mazkur hududda tatarlar to'la erkinligi haqida ma'lumotlarni ham keltirgan [8, P.247].

H.Vamberi yuqoridagi keltirilgan savdogarlar va elchilardan farqli ravishda Buxoro hamda Xiva xonliklari hajm jihatidan ko'proq va muhim ahamiyatga moyil ma'lumotlarini yozib qoldirgan. Bu jarayonda unga ko'plab tillar, xususan, slavyan, nemis, ingliz tillari bilan bir qatorda turkey tillarni ham mukammal bilishi juda qo'l keladi. U dastlab Usmonlilar imperiyasi markazi Istambulda bir muddat yashab turkiy xalqlarning tili, madaniyati, turmush tarzi hamda dini bilan yaqindan tanishadi va ularni mukammal ravishda o'rganadi. U hatto Konsatntinopol hukmdori Mehmet Fuad (1814-1869) saroyida kotib sifatida faoliyat yuritadi. 1861-yilda u o'ziga Abdurashid Afandi ismini qabul qiladi va darveshlarga qo'shilib, Trabzon orqali Tehronga boradi. Ushbu shaharda Herman Vamberi (Abdurashid Afandi) Makkadan qaytayotgan turkistonlik hojilarga qo'shilib, Xiva hamda Buxoroga boradi. U o'zining O'rta Osiyoga sayohati davomida ilk marotaba Buxoroda ko'chmanchi va o'troq aholining bozorlariga, karvonsaroylarga, qalandarxonalarga duch keladi. U o'zining "O'rta Osiyoga sayohat" (Travels in Central Asia) asarida mazkur hudud aholisi, etnografiyasi, madaniyati, turmushtarzi, savdo-sotig'i haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Xususan, "O'rta Osiyoga sayohatlar" asarining "Ko'chmanchilar hayoti" ("Nomadic life") bobida turkmanlarning Xiva va Buxoro bozorlariga qullarni olib kelib sotganlarini qayd etadi. U bozor maydoniga keltirilgan qullarni quyidagicha tasvirlaydi: "Turkman ko'chmanchi otliqlari o'z otining dumiga va o'z egarlariga qo'llari bog'langan qullarni bog'lab olib keldilar, qullarning orasida ayollar va bolalar ham bor" [9, P.163].

4.Xulosalar:

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Buxoro amirligi XVIII-XIX asrlar davomida imperialistic davlatlar tomonidan har tomonlama o'rganilgan hamda kerakli ma'lumotlarni bazasi shakllantirilgan. Bu asosan savdo va elchilik masalasida mazkur hududlarda bo'lgan savdogarlar, elchilar, sayyohlarning bergan ma'lumotlari orqali shakllantirilgan. Jumladan, islom dinini qabul qilgan va naqshbandiy tariqati asoschisi Bahovuddin Naqshband (1318-1389) qabrini ziyorat qilish maqsadida mazkur hududga tashrif buyurgan Herman Vamberi ham Britaniya maxfiy razvedkasi bilan aloqa bog'lagan hamda ularga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yetkazib turgan. Ushbu ma'lumotlar asosida Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi mazkur hududni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'rgan. Bu o'rinda O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi ziddiyatlar hamda qo'shni davlatlar bilan aloqalarining yomonligi ham qo'l kelgan. Jumladan, Qo'qon va Buxoro o'rtasidagi yohud Xiva va

Buxoro o'rtasidagi ziddiyatlar bosqinchilar uchun juda qo'l kelgan. Bunga qo'shimcha tarzda Eron hamda Buxoro o'rtasidagi ziddiyatlarni ham keltirish mumkin. Rossiya va Buyuk Britaniya manfaatlarini to'qnash kelgan bu hudud taqdiri oxir oqibatda ikki mustamlakachi davlatning o'zaro kelishuvi orqali hal etildi, ya'ni O'rta Osiyo hududiga Rossiya, Hindiston va Afg'onistonning janubiy hududlariga Britaniya egalik qilishiga kelishildi hamda Afg'oniston mazkur o'rinda buffer zona sifatida o'z ozodligini saqlab qoladi.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Эрқўзиёв А. Ўрта Осиё ва Фарбий Европа ўртасидаги иқтисодий алоқалар ва савдо йўллари тарихи. -Тошкент: "Yangi nashr", 2014. -Б.50 (Erqo'ziev A. History of economic relations and trade routes between Central Asia and Western Europe. -Tashkent: "New edition", 2014. -P.50)
2. Алишев С. К. Источники по истории Татарстана, - Казан, 1993, - С.110 -111. (Alishev S. K. Sources on the history of Tatarstan, - Kazan, 1993, - P.110 -111.)
3. Попов А. Сношения России с Хиву и Бухарию при Пётр Великом. - Петербург, 1853. - С.67, 139-140, 149. (Popov A. Relations of Russia with Khiva and Bukhara under Peter the Great. - Petersburg, 1853. - P.67, 139-140, 149.)
4. Филлип Ефримов, Странствование Филлипа Ефримова в Киргизской степи, Бухарии, Хиве, Персии Тибете и Индии и возвращение его оттуда через Англию в Россию, Петр Кондырев - Казан,1811.- С.72, 96 (Phillip Efrimov, The wanderings of Phillip Efrimov in the Kyrgyz steppe, Bukharia, Khiva, Persia, Tibet and India and his return from there through England to Russia, Petr Kondyrev - Kazan, 1811.- P.72, 96)
5. Бурнашев и Поспелов, "Путешествие от Сибирский линии до города Бухари в 1794 и обратно в 1795 году" Сибирский вестник 1818г. (Burnashev and Pospelov, "Journey from the Siberian line to the city of Bukhari in 1794 and vice versa in 1795" Siberian Bulletin of 1818.)
6. Armenius Vambery, Travels in Central Asia - London, 1865. - P.227
7. Allen J. Frank Bukhara and the muslims of Russia Sufism, education, and the paradox of Islamic prestige, Leiden -2012 - P.81
8. Armenius Vambery Travels in Central Asia. - London, 1865. - P. 247.
9. Armenius Vambery, Travels in Central Asia - London, 1865. - P.163.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

МАХСУС СОН

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000